

“ALISHER NAVOIY IJODIDA AXLOQIY FAZILATLAR: SABR VA BAXILLIK MISOLIDA”

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti

3-bosqich talabasi

Vasijonova Surayyo

Annotasiya: Ushbu maqolada buyuk o‘zbek mutafakkiri va shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi yoritilgan, uning adabiyotga qo‘shgan hissasi va yaratgan asarlari tahlil qilingan. Maqolada, xususan, Navoiy nasriy merosining nodir namunasi bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asaridagi sabr va baxillik mavzulari batafsil o‘rganilgan. Muallif sabr va baxillikni insoniy fazilatlar kontekstida tahlil qilib, ularning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, sabr, baxillik, axloqiy-didaktik asar, o‘zbek adabiyoti, nasr, insoniy fazilatlar.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o‘gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotida tug‘ildi. Zamondoshlari uning haqida ko‘pincha „Nizomiddin Mir Alisher“ deb yozadilar. Nizomiddin — din-diyonat nizomi degani bo‘lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, „mir“ amir demakdir. Uning otasi G‘iyosiddin Muhammad (uni G‘iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo‘lgan, ismi ma’lum emas. Alisherning bobosi Temurning o‘g‘li Umarshayx bilan emikdosh (ko‘kaldosh) bo‘lgan. Tarixchi Ali Yazdiy nazariga tushgan, shoir Lutfiy yosh shoir iste’dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e’tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta’lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo‘lgan. Maktab yosh Alisherni she’riyat, adabiyot olamiga olib kirgan. Bo‘lajak shoir Sa’diy Sheroziyning „Guliston“ va „Bo‘ston“, asarlarini, Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush mantig‘i“) asarini so‘ngsiz

ishtiyoq bilan o'qiydi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o'y-xayolini tamom egallab oldi hattoki, bu asarni ota-onasi yosh o'g'lini telba bo'lib qolmasligidan qo'rqib olib qo'yadilar, ammo yosh Alisher yod olib bo'lgan edi. „Mantiq ut-tayr“ hayoli Alisherga bir umr hamroh bo'ldi. Umrining so'ngida esa „Lison ut-tayr“ („Qush tili“) nomi bilan kitob yozdi. Bo'lajak shoir yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarini ham sevib o'qigan. Bilamizki, Alisher Navoiy bebaho asarlarni yaratish bilan birgalikda davlat ishini ham bir maromda olib borgan. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofidagilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi. Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni — „Badoye ul-bidoya“ („Badiiylik ibtidosi“)ni 1472–1476-yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. Navoiy maslahatga ustoz Abdurahmon Jomiy huzuriga boradi. Jomiy Navoiyni bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o'z „Xamsa“sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida yugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba „Xamsa“ yaratiladi. Shoir „Xamsa“ dan keyin ko'p o'tmay, ketma-ket nasriy kitoblar yaratdi. U 1488-yilda yozgan „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlar tarixi“) shularning biri edi. Bu asar „Muhokamat ul-lug'atayn“da „Zubdat ut-tavoxir“ („Tarixlar qaymog'i“) deb ham ataladi. 1480-yillarning oxiri, 1490-yillarning boshida Navoiyning yaqin do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag'ishlab „Holoti Sayyid Hasan Ardasher“, „Xamsat ul-mutahayyirin“, „Holoti Pahlavon Muhammad“ asarlarini yozadi. Alisher Navoiy umrining so'nggi yillarida ham ijod qilgan. mutafakkir, adabiyotshunos va tilshunos olim Alisher Navoiy ijodini o'rganish, ilmiy merosini chuqur tahlil qilish har bir davrda eng zaruriy talablardan biri sanalgan. Bugungi kunda ushbu talab ortsa ortdiki, aslo kamaygan emas. Sababi Navoiyning butun ijodi g'oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to'plagan boy tajribasi va xulosalarining yig'indisidir. Mutafakkir bir soniya vaqtini ham bekor sarflamagan, umrining ko'p qismi og'ir sharoitda,

qiyinchiliklar orasida o'tsa-da hamisha ilm-ma'rifat talabida bo'lgan. "Mahbub ul-qulub" da Navoiy hayotiy tajribasidan chiqargan xulosalari asosida o'z davri kishilarini rostgo'y va to'g'ri bo'lishga chaqiradi. Yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor beradi. U insonlarni ilm-hunar va mehnatsevarlikka undab, erishilgan ilm va kasb-korni ezgulik yo'lida sarf qilish zarurligini uqtiradi. Asarning bir qancha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan. Navoiy odob-axloq haqida fikr yuritarkan, yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralaydi, olijanob insoniy fazilatlarni esa yuksak qadrlaydi, bolalarni o'qish, o'rganish va go'zal odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqiradi. Bu asarda ko'plab fazilatlar yoritilgan. Ma'lum bir boblarini ko'rib chiqsak.

Sabr zikri bobida Alisher Navoiy bu bobda sabrni inson uchun eng zarur va eng oliy fazilatlardan biri deb biladi u sabrni barcha mushkullar kaliti deya ta'riflaydi va sabrli kishi har qanday balo va sinovdan omon chiqishini ta'kidlaydi sabr insonni shoshqaloqlikdan jahl va nadomatdan asraydi sabrli odam og'ir kunlarda ham o'zini tutib aql bilan ish ko'radi sabr qilgan kishi vaqt o'tib rohat va yengillik topadi chunki har bir qiyinchilikning oxiri bor sabrsiz kishi esa ozgina mashaqqatga duch kelsa ham chidamay norozilik qiladi va shoshqaloqlik bilan ish tutib o'z boshiga kulfat orttiradi sabr bilan ish ko'rgan odam balodan najot topadi sabrsizlik esa insonni xato yo'lga boshlaydi sabr nafsni tiyadi aqlni mustahkamlaydi va odamni komillikka yetaklaydi shuning uchun sabrli kishi Alloh huzurida ham xalq orasida ham aziz bo'ladi. Navoiy sabrni bemorga o'xshatadi, biz dorini achchiq bo'lsa ham ichamiz natijada esa tuzalamiz. Sabr qilib ichganimiz, uchun oxirida go'zal natija bilan yakunlanadi. Yana sabrning chiroyli yakuni sifatida oshiqalarda deydi. Hikoyatda, bir yigit go'zal qizni yaxshi ko'rib qoladi va ma'lum sabablarga ko'ra qamoqqa kiradi. Ko'p kunlar qamoqda o'tirsa ham sabr bilan kutadi. Jazolash kuniga kelganda ommaning oldida 40 darra uriladi. Xalqning ichida yorini ko'radi, odamlar hayron bo'ladi shuncha kaltaklansa ham indamaganiga bunday urushlar tugaydi. Og'zini ochib ko'rishganda tanganing maydalanganiga ko'zlari tushadi. Bunda ham ko'rishimiz mumkinki, yor vasli uchun hamma qiynoqlarga tayyorligi va go'zal sabri bilan yorga yetishishi. Hayotda ham sabrli insonlar ko'plab natijalarga erishadi. Navoiy sabrni qalqonga o'xshatadi u insonni ofatlardan himoya qiladi deydi va xulosa qilib aytadiki kim

sabr qilsa oxir-oqibat maqsadiga yetadi kim sabrsizlik qilsa pushaymonlikdan boshqa narsa topmaydi.

Asarda Navoiy kishi uchun or sanalmish baxillik haqida ham original fikr yuritadi: “Baxilning andoqki, bugun topqoni zaxira bo‘lg‘ay, tongla qabri ham bu kungi maoshi uyidek tiyra bo‘lg‘ay. Zuhdu taqvo barcha vaqtda dilpisanddur, yigitlikda dilpisandroq. Tavba va istig‘no hama vaqtda sudmanddurqariliqda sudmandroq. Hilmu-hayo ahli har yerda arjumanddur, ulug‘lar nazarida arjumandroq. Yaxshiliq va yomonliqni kim qildikim, jazo ko‘rmadi. Saloh va fasod tuxmin kim ektikim, o‘rmadi”. Baxil bugun topganini asrab qo‘ysa, ertaga uning qabri bugungi ro‘zg‘oridek qorong‘i bo‘ladi. Yumshoq ko‘ngilli va hayoli odam hamma joyda azizdir, ulug‘lar nazarida yanada qadrliroq. Kim yomonlik va yaramaslik qilibdiki, jazosini tortadi, kim yaxshilik va to‘g‘rilik urug‘ini ekibdiki, hosilini teradi. Navoiy baxillikning ziddini ehson deb biladi. Shuni alohida aytish kerakki, inson uchun yana bir ulug‘ farz – ehson qilishdirki, bu haqidagi fikrini Navoiy muqaddas hadislarga bog‘lagan holda davom ettiradi: “Hal jazo ulehsoni illa-l ehson”. Jumladan, hamma ta‘limotlarda va barcha millat kishilari qoshida ham yaxshilikka yaxshilikdan boshqa mukofot yo‘qligi isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari o‘zbek adabiyotida axloqiy-didaktik nasrning yetuk namunasi bo‘lib, unda muallif inson va jamiyat hayotiga oid muhim masalalarni chuqur falsafiy mushohada asosida yoritadi. Asarda insonning ma‘naviy kamoloti, adolatli jamiyat barpo etish, halollik, sabr, ilm, saxovat kabi yuksak fazilatlar ulug‘lanib, zulm, baxillik, kibr, sabrsizlik singari illatlar keskin tanqid qilinadi. Navoiy har bir fikrini hayotiy kuzatuvlar va hikmatli bayon orqali asoslab, o‘quvchini o‘zini tarbiyalashga undaydi. “Mahbub ul-qulub” nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo‘lib, u komil inson tarbiyasida muhim ma‘naviy manba vazifasini bajaradi. Asar Alisher Navoiyning chuqur tafakkuri, boy hayotiy tajribasi va yuksak axloqiy qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil. 316 bet.

2. A.Muhammadiyev “Mahbub ul-qulub” da insoniy fazilatlar tarannumi. “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Toshkent: 2019-yil.